

**Quvondiqov Murodbek Ilhomiddin o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
4-bosqich kursanti**

**OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGINI
HUQUQIY TA’MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini huquqiy ta’minlashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar shuningdek, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini huquqiy ta’minlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjalalar, ularni qo’llash amaliyoti hamda yuridik fandagi kontseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tadbir, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, Milliy gvardiya, miting, yig‘ilish, qonun, fuqaro muhofazasi.

Аннотация: Научные заключения, предложения и рекомендации, направленные на совершенствование правового обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий в Республике Узбекистан, а также общественные отношения, возникающие в процессе правового обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий, нормативные правовые акты, правовое регулирование обеспечения общественного порядка и безопасности при проведении массовых мероприятий, практика их применения и концептуальные подходы в юридической науке и были проанализированы научно-теоретические взгляды.

Ключевые слова: Публичное мероприятие, общественная безопасность, общественный порядок, Национальная гвардия, митинг, собрание, закон, гражданская оборона.

Annotation: Scientific conclusions, suggestions and recommendations aimed at improving the legal provision of Public Order and security in the Republic of Uzbekistan when conducting public events, as well as the social relations arising in the process of legal provision of Public Order and security in the conduct of public events, regulatory legal documents that legally regulate public order and security in the conduct of public events, the practice of

Keywords: Public event, public safety, public order, National Guard, rally, assembly, law, civil defense.

amoat tartibini buzganligi uchun javobgarlikni belgilovchi huquqiy normalarda aybdorlik shakli turlicha ifodalanadi. Ba’zi hollarda, masalan harakatning g’arazli yoki ashaddiy tusdaligi to’g’ridan-to’g’ri ko’rsatilsa, boshqalarida esa aniq shakli g’arazli harakat tarkibi mazmunidan kelib chiqadi.

Sudlar tomonidan ommaviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to’g’risidagi qonunlarni qo’llash borasida kelib chiqqan masalalar hamda yangi jinoyat qonunlarining qabul qilinishi tufayli O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumi bir qator qarorlar qabul qildi . Oliy sud Plenumi qaroriga ko’ra, ommaviy tartibsizliklarning faqat tashkilotchilari va ishtirokchilari agarda ular bevosita qирг’инлар qilishda, vayronagarchiliklar, o’t qo’yishlar va boshqa shu kabi harakatlarni sodir etgan bo’lsalar yoki hokimiyat vakillariga qurolli qarshilik ko’satgan bo’lsalar Jinoyat

kodeksining 244-moddasi bilan jinoiy javobgar bo’ladilar, agar bir guruh shaxslarning harakatlari jamoat tartibini buzsa, lekin qirg’inlar qilish, vayronagarchiliklar, o’t qo’yishlar va boshqa shu kabi harakatlar bilan birgalikda sodir etilmagan bo’lsa, bunday harakatlar ommaviy tartibsizliklar deb hisoblanishi mumkin emas, tegishli holatlar mavjud bo’lsa, JKning 277-moddasi bilan javobgarlikka tortilishiga sabab bo’ladi, agar ommaviy tartibsizliklarning ishtirokchilari tomonidan, o’g’irlashlar, talonchilik, bosqinchiliklar qilish va boshqa alohida jinoyat tarkibini tashkil etuvchi jinoyatlar sodir etilganda jinoyatlar majmuasi bilan tavsiflanadi .

Respublikamizda har yili 20 mingga yaqin ommaviy, siyosiy, madaniy, milliy, kasbiy va sport tadbirlari o’tkazilmoqda. Ushbu tadbirlarda o’z navbatida umumiy hisobda 90 milliondan ziyod ishtirokchilar qatnashmoqda. O’tkazilayotgan ommaviy tadbirlar davrida ichki ishlar organlari tomonidan jamoat tartibini va xavfsizlikni ta’minlashdagi ma’muriy-huquqiy muammolardan biri bu amaldagi ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksda ommaviy tadbirlarni o’tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash qoidalarini buzganligi uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi ma’muriy-huquqiy normani yo’qligidir. O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining jinoyat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma’muriy javobgarlik XV bobiga O’zbekiston Respublikasining 2003 yil 25 apreldagi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqidagi qonun bilan 200-moddasi (Ommaviy tadbirlar o’tkazish qoidalarini buzish) kiritildi.

Ushbu moddadagi ma’muriy huquqiy norma asosan ommaviy tadbir tashkilotchilariga nisbatan ommaviy tadbirlar o’tkazish qoidalarini, ya’ni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagи 205-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o’tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” qoidalari talablarini bajarilmagan holda qo’llaniladi.

Ichki ishlar organlarining amaliy faoliyatida asosan ommaviy tadbirlar o’tkazish davrida jamoat tartibi va xavfsizligiga tajovuz soluvchi huquqbazarliklar ko’p uchraydi. Ushbu huquqbazarliklar mayda bezorilik (183-modda) huquqbazarliklardan ham ijtimoiy xavfli hisoblanadi. Chunki ommaviy tadbir davrida sodir etilgan huquqbazarlik harakati ommaviy tartibsizliklarni sodir etilishiga yoki ko’plab fuqarolarni jarohatlanishiga sabab bo’lishi mumkin. Hozirgi kunda amaliyotda ushbu harakterdagi huquqbazarliklar ichki ishlar organlari tomonidan mayda bezorilik huquqbazarligi sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Huquqshunos olimlar X.R.Alimovning fikricha jamoat tartibi ma’naviy, huquqiy normalar bilan hamda axloq, odob, urf-odat qoidalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir . Jamoat tartibi davlat organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan muhofaza etiladi. Bu ishda asosiy vazifani ichki ishlar organlari bajaradi.

Mayda bezorilik (183 – modda), ya’ni jamoat joylarida uyatli so’zlar bilan so’kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa hatti – harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish–turish qoidalarini qasddan mensimaslik, ma’muriy javobgarlikka tortishga sabab bo’ladi. Jamoat tartibi mayda bezorilikning qasd qilish obyekti hisoblanadi. Jamoat tartibi jamoat joylarida huquq me’yorlarini saqlashga asoslangan munosabatlardir. Jamoat tartibi faqat huquqiy me’yorlarga emas, balki boshqa ijtimoiy me’yorlar, axloq, urf-odat, jamoat tashkilotlarining me’yorlari bilan ham mustahkamlanadi . Huquqiy me’yorlar assosiy rolъ o’ynaydi, chunki tartibni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni, jazoning turi va me’yorini shular belgilaydi. Aybdorning xatti–harakati jamiyatning, tevarak–atrofdagi fuqarolarning manfaatlarini yaqqol mensimaslikdan, madaniy saviyasining pastligidan, axloq va odobning mavjud qoidalarini e’tiborga olmaslikdan dalolat berib turadi.

Fuqarolar osoyishtaligi va jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakat huquqbuzarlikning obyektiv tomonini tavsiflaydi. Ularga quydagilarni kiritish mumkin: jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga xaqratomuz tegajoqlik qilish, ya'ni boshqa shaxsning obro'-e'tibori, izzat-sha'nini haqoratlovchi hamda ularning oromini buzuvchi shilqimlik xatti-harakati bo'lishi mumkin. Bunga shuningdek, fuqaroni inson qadr-qimmatini haqoratlovchi suxbatga zo'r lab tortish, shilqimlik bilan uning qo'lini siltash yoki kuch bilan qo'lidan ushslash, bosh kiyimini yulqib olish; sigaret tutunini uning yuziga kuflash va hakozolarni kiritish mumkin. Mayda bezorilik obyektiv tomonining muxim belgisi vaziyat, makon, vaqt hisoblanadi. Turli sharoitda bir xil xatti-harakat turlicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish mayda bezorilikka xos voqeа, xuddi shunday xatti-harakat tantanasi majlis, bayram va boshqa ommaviy tadbirlarda jinoyat tarzida jazolanuvchi bezorilik sifatida tavsiflanishi mumkin (JK 277-modda 3 qism).

Huquqshunos olim X.Alimovning fikricha, mayda bezorilik ko'pincha jamoat joylarida amalga oshiriladi, ya'ni ommaning qabul qilish idrokiga tayaniladi . Biroq jamoatga yoki inson sha'niga nisbatan mensimaslik munosabati ma'lum bo'lib qolishini e'tiborga olib, huquqbuzarlik yashirinchha bajarilgan bo'lishi mumkin.

Mayda bezorilik sub'ektiv tomondan qasddan va ko'pincha oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor qonunga qarshi xatti-harakat qilayotganligini tushunadi va shuning natijasida yomon oqibatga olib kelishga – jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzilishiga yo'1 qo'yadi. Mayda bezorilik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 277– moddasida ko'zda tutilgan bezorilik xatti-harakatidan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar (XX) bobida bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish–do'pposlash, unga yengil tan jaroxati yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etiladi. Qilmishni, jinoyat kodeksi 277-moddasining

1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun yuqorida ko'rsatilgan oqibatlarning barchasi bir vaqtida mavjud bo'lishi talab etilmaydi.

Bezorilik jamoat tartibi qoidalariga qasddan hurmatsizlik bildirishda ifodalanadigan qilmishdir. Mana shu qonuniy ta'rifdan kelib chiqib, ta'kidlash kerakki, bezorilik xulqi jamoat tartibiga tajovuz qilishdir. Tajovuz ob'ekti sifatidagi jamoat tartibi deganda, ijtimoiy muomala va xulq–atvor qoidalarining asosini tashkil etuvchi kishilarining o'zaro munosabatlari dagi lozim bo'lgan yurish–turishni, jamoat va fuqarolar tinchligini, umum e'tirof etgan axloqiy, huquqiy, diniy, ma'nnaviy, milliy va boshqa an'analar, urf–odatlar va qadriyatlarni hurmat qilish va ularga rioya etishni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushunilmog'i kerak. Bezorilik ob'ektiv tomondan jamiyatdagagi axloq qoidalarini mensimaslikni ifodalandigan faol harakatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyatdagagi ahloq qoidalarini mensimaslikning shakllari xilma-xildir, chunki jamoat tartibi uyat so'zlarni aytish, urish–janjal chiqarish, fuqarolarga zo'rlik ishlatis, o'zgalar mulkini yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish kabi yo'llar bilan ham buzilishi mumkin . Ammo barcha bezorilik harakatlari uchun huquqiy muhofazaga olingan jamoat tartibini jamiyatda barcha tomondan qabul qilingin axloq qoidalarini mensimaslik yo'li bilan buzish xosdir. Jamiyatdagagi axloq qoidalarini mensimaslik deganda, qonunga, ijtimoiy muomala hamda axloq odob qoidalariga, umum e'tirof etgan an'ana va urf – odatlarga, shakllangan hayot tarziga nisbatan hurmatsizlikning namoyon bo'lishi tushuniladi. Shaxs jamiyatdagagi axloq qoidalarini mensimagan holda jamoat tartibini tashkil etuvchi va qonun bilan himoya qilinuvchi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishning real xavfini vujudga keltiradigan muayyan harakatlar qiladi. Odatda jamiyatdagagi axloq qoidalarini mensimaslik oshkora, ya'ni ko'pchilik odamlar oldida yuz beradi.

Bezorilik harakatlarini jamoat joylarida (teatrda, parkda, stadionda, ko'chada, restoranda, kafeda va h.k.) odamlar ishlaydigan, xursandchilik qiladigan joylarda sodir etilishi ko'p uchraydi lekin, bezorilikka xos to'polon va urush janjallar nojamoat joylarida ham tez-tez sodir etiladi. Bunday xodisalarni bezorilik deb bilish kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani hal etishda huquqbuzarlik tarkibining zaruriy belgilari bilan birga jamoat tinchligiga va nafaqat oila a'zolarining, balki boshqa fuqarolarning ham osoyishtaligiga rioya etish qoidalarini ochiq mensimaslik belgilarining mavjudligini ham aniqlash zarur. Amaldagi qonunlarga ko'ra, aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzish o'rtaida sababiy bog'lanish bo'lishi shart. Sababiy bog'lanish aniqlanmagan holda qilmish shaxsga yoki mulkka qarshi qaratilgan jinoyat deb baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 14 iyuldagagi "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 9-sonli qarori bilan belgilanishicha, sudlar bezorilik jinoyati bilan ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishi mayda bezorilikni bir-biridan farqlashlari zarur. Mayda bezorilik tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodesning 183–moddasida berilgan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra, ushbu huquqbuzarlik jamoat joylarida uyatli so'zlar aytish yoki shunday so'zlar bilan so'kish, behayo qiliqlar ko'rsatish yoxud odamlarga nisbatan haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzish kabi jamiyatda yurish–turish qoidalarini ochiqdan–ochiq mensimaslik harakatlarida ifodalanadi. Bunda jinoyat kodeksi 277– moddasining 1-qismi alomatlari bo'lmasa. Jinoyat kodeksi 277- moddasi 2-qismining "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Ichki ishlar organlari tomonidan har yili o'rtacha 4100 ta bezorilik jinoyati, 60 minga yaqin mayda bezorilik aniqlanadi .

Ommaviy tadbirlar paytidagi bezorilik, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish tahdidi bilan xavflidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002 yil 14 iyundagi "Bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqidagi" 9-sonli Qarorining 9-bandida "Ommaviy tadbir" tushunchasi quyidagicha "...belgilangan tartibda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, o'zini–o'zi boshqarish organlari tomonidan tashkil etilgan rasmiy tadbirlar, bayram sayillari, namoyishlar, mitinglar, majlislar, saylovlar, xalq hasharlari" tushuniladi.

Yuqorida qayd etilgan ommaviy tadbir davrida sodir etilgan bezorilik jinoyat kodeksining 277-moddasini 3-qismining "v" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Bizning fikrimizcha Oliy sud Plenumi qarorida ham amaldagi jinoyat kodeksi (277-m) va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi (183-m) kodekslarda ham ommaviy tadbir davrida jinoyat tartibini buzishga oid harakatlar huquqiy jihatdan to'liq mustahkamlanmagan.

Huquqni qo'llash amaliyoti mutaxassis xodimlarining fikrlari o'rjasida sotsiologik so'rov asosida keltirilgan qilmishlarning ijtimoiy xavfini hamda ularni javobgarlik doirasiga kiritish zaruratini aniqlashga harakat qilgan. Jumladan, amaliyot xodimlariga ««Sizningcha, ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash qoidalarining buzilishiga olib keladigan qilmishni sodir etish, vakolatli organlarning ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalariga rioya etish bo'yicha bergen qonuniy talablarini bajarmaslik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash zarurati mavjudmi?»» degan savol bilan murojaat qilinganda, respondentlarning 61,9 % – mazkur qilmishlar uchun javobgarlik belgilash ommaviy tadbir vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfni kamaytirishga xizmat qiladi; 18,7 % – taklifni milliy qonunchilikka kiritish hech qanday samara bermaydi; 9,4 % – savolga muayyan javobni berishga qiynalishini ma'lum qilishgan .

Yuqorida qayd etilgan ilmiy mulohazalar tahlili asosidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga 2002–modda. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish

vaqtida jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash qoidalarini buzish” to'g'risidagi qo'shimcha kiritish haqidagi qonun loyihasi (ilovaga qaralsin) taklif etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash fuqarolar xavfsizligini ta'minlash qoidalarini buzilishiga olib keladigan har qanday qilmishni sodir etish, yonuvchan, zaharlovchi, tez alanganuvchi, portlovchi hamda zaharli moddalar va ashyolardan foydalanish, saqlash va ularni olib yurish qoidalarini buzish, xuddi shuningdek ommaviy tadbir o'tkazilayotgan joyda jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan shaxslarning qonuniy talablarini bajarmaslik.

ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagи “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 205-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 22.09.1994 y.
5. Sh.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” – T., “O'zbekiston” 2017., - 48 b